

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ABDIYEVA FIRUZA ISKANDAROVNA

**KIMYO SANOAT CHIQINDILARINI KIMYOVIY QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH (QO‘NG‘IROT SODA ZAVODI
MISOLIDA)**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosida materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdiyeva Firuza Iskandarovna

Kimyo sanoat chiqindilarini kimyoviy qayta ishlash texnologiyasini ishlab
chiqish (Qo‘ng‘irot soda zavodi misolida)..... 3

Абдиева Фируза Искандаровна

Разработка технологии химической переработки отходов химических
производств (На примере Кунградского содового завода) 21

Abdiyeva Firuza Iskandarovna

Development of technology for chemical processing of chemical production waste.
(using the example of the Kungirat soda plant) 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 42

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

ABDIYEVA FIRUZA ISKANDAROVNA

**KIMYO SANOAT CHIQINDILARINI KIMYOVIY QAYTA ISHLASH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH (QO‘NG‘IROT SODA ZAVODI
MISOLIDA)**

02.00.13 - Noorganik moddalar va ular asosida materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/T3231 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nabiyev Abduraxim Abduxamidovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Temirov O‘ktam Shavkatovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Mamajonov Zokirjon Nematjonovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil « 27 » mart soat 15⁰⁰ da o‘tadigan majlisida bo‘ladi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71; e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (373 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi 7. Tel.: (+99869) 228-76-75; faks: (+99869) 228-76-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «14 » mart kuni tarqatildi.

(2025 yil «14 » martdagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).

Ergashev O.K.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

Sherqo‘ziyev D.Sh.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

Boymirzayev A.S.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida o‘zib borayotgan aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda noorganik moddalarning o‘rni hozirgi paytda beqiyos bo‘lib, chiqindi moddalarni kimyoviy tozalash sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash sohani rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Ishlab chiqarilayotgan kaltsinatsiyalangan sodalar turli mahsulotlar ishlab chiqarishda, neft va gazni qazib olish va qayta ishlash jarayonida, metallurgiya sohasida, kimyo va oziq-ovqat sanoati hamda boshqa sohalarda ishlatiladi. Kaltsinatsiyalangan sodani olishda xom ashyo zaxiralarini fizik-kimyoviy xossalarni o‘rganish, ularni kam-chiqim va ekologik toza chiqindisiz texnologiyalarini ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda sanoat chiqindilarini kimyoviy qayta ishlash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy va texnologik izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, kaltsinatsiyalangan soda olishning yuqori ekspluatatsiya ko‘rsatkichlariga ega usullarini ilmiy asosini yaratish, ularning xom ashyolarini o‘rganish, olishning zamonaviy texnologiyalari va mashinalarini yaratish, ularni ishlatish sohasini kengaytirish, turli tarkibli universal soda mahsulotlari sintez qilish, aromatlantirilgan (yoqimli hid berilgan) kir yuvish vositalarini olish, kalsinatsiyalangan soda zavodi chiqindilaridan amaliy foydalanish usullarini ishlab chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish va sanoat chiqindi mahsulotlaridan noorganik moddalar olishning maqbul texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamiz kimyo sanoatida hozirgi paytda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, takomillashtirish hamda sifatli va yangi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini qurish, xomashyo bazasini mahalliyashtirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo‘nalishida «... milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushini oshirish va sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish...»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xomashyo asosida kaltsinatsiyalangan soda olish korxonasi ishlab chiqarish mahsulotlarini ko‘paytirish maqsadida texnologik jarayonini takomillashtirish, ishlab chiqarilayotgan soda sifati va miqdorini oshirish, xomashyoning yangi zaxiralarini yaratish, ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlash usullarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son «2017-2021 yillarda kimyo

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.

sanoatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida»gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-son «O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan qattiq va suyuq chiqindini qayta ishlash bo‘yicha olimlardan: Yang J.E., Kim H., Gao C., Dong Y., Zhang H., Zhang J., Alamdari A., Korkut I., Kasikowski T., Jadeja R., Nasirov R. R., Daminev R.R., Kurbangaleyeva L.R., Bikbulatov I.X., Oparina F.R., Galiyeva O.M., Omuraliyeva A.J., Zagidullin N.R., Zagidullina G.R., Kasyanov V.K., Atakuziyev T.A., Ablullayeva N.A., Isayev A.B., Erkayev A.U., Mirzakulov X.Ch., Iskenderov A.M., Jumaniyazov M.J., Kaipbergenov A.T. va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Distiller suyuqligining soda zavod atrofidagi hududlarga oqizilishi tabiiy suv omborlarining doimiy minerallashuviga, suv havzalarining biologik holatini sezilarli o‘zgarishiga olib keladi. Natijada, suv omborining ifloslanishi insonga be‘vosita yoki bilvosita ta‘sir qilishi, sanoat suv ta‘minoti manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin. Soda ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirishning asosiy vazifasi distiller suyuqlikni kimyoviy qayta ishlash natijasida kalsiy peroksid olish, uni sellulozani oqartirishda tadbiq qilish, shu bilan birga distiller suyuqligini koagulyantlar orqali tozalash jarayonini tajriba sinovini laboratoriya sharoitida o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shunday qilib, distiller suyuqlikni koagulyatsiya usuli orqali tozalash jarayonini laboratoriya sharoitida bugungi kunga qadar o‘rganilmagan, ilmiy-texnik vazifa ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan soda ishlab chiqarishning asosiy chiqindilarini qayta ishlash dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti Kengashi tomonidan tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq “Qo‘ng‘irot soda zavod ishlab chiqarish chiqindi-distiller suyuqligini qayta ishlash orqali yangi mahsulot turini va ishlab chiqarish jarayonidan chiqayotgan tashlandiq suvlarni qayta ishlab texnologiyada ikkilamchi foydalanish” mavzusidagi bajarilishi 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan xo‘jalik shartnomasiga asoslanib bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Qo‘ng‘irot soda zavodi kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan distiller suyuqlikdan kalsiy peroksid olish,

suyuqlikni koagulyant orqali tozalash hamda kimyoviy qayta ishlashning samarador texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindisining kimyoviy tarkibini va sifat hamda element tahlil qilish;

Kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindisini umumiy qattiqligini, pH ni, miqdoriy kimyoviy tahlil Mass-spektrometrik analiz yordamida tarkibini aniqlash;

Kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindisini ion almashinish xromatografiyasi orqali tozalashdan o'tkazish;

Qo'ng'irotda soda zavod MCHJ distiller suyuqligini koagulyantlar orqali tozalash jarayonini laboratoriya tajriba sinovini o'tkazish;

Qo'ng'irotda soda zavodi kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindidan ya'ni distiller suyuqligini kimyoviy qayta ishlab kalsiy peroksid olish samarador texnologiyasini ishlab chiqish.

Kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindisidan olingan kalsiy peroksidni sellulozani oqartirishda tadbir qilish.

Tadqiqot ob'yekti sifatida Qo'ng'irotda soda zavod distiller suyuqligi filtrati, distiller suyuqligi cho'kmasi, qattiq chiqindilari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti Qo'ng'irotda soda zavodi kaltsilangan soda ishlab chiqarishda ajralib chiqayotgan suyuq chiqindidan ya'ni distiller suyuqligini kimyoviy qayta ishlab kalsiy peroksid olishning optimal parametrlarni asoslash hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishi natijalarini olishda fotometrik, spektrofotometrik, Mass-spektrometrik analiz (ICP-MS), IQ spektroskopik, rentgenofluoressent tahlili, nur qaytarish va nur yutish spektroskopiyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qo'ng'irotda soda zavod chiqindi suvi (distiller suyuqligini) ion almashinish xromatografiyasi orqali tozalashni ilmiy asoslari o'rganilib bu usulda chiqindi suvini tozalash iqtisodiy samarador emasligi aniqlangan;

Ilk bor Qo'ng'irotda soda zavod chiqindi suvi, distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kalsiy peroksid olingan;

Ilk bor distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni samarador kontsentratsiyasi aniqlangan va koagulyatsiyadan o'tkazilgan suvni tozalik darajasi Qo'ng'irotda soda zavod texnik ko'rsatkichiga muvofiqligi asoslangan;

Qo'ng'irotda soda zavod chiqindi suvi, distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kalsiy peroksid olish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

Qo'ng'irotda soda zavod chiqindi suvi, distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida olingan kalsiy peroksidni sellulozani oqartirish sanoat texnologik sxemasi yaratilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

Qo'ng'irotda soza zavod chiqindi suvi, distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kalsiy peroksid olish tajriba-sinovlar o'tkazilgan va texnologik sxemasi yaratilgan.

Distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni samarador kontsentratsiyasi aniqlandi va koagulyatsiyadan o'tkazilgan suvni tozalik darajasi Qo'ng'irotda soda zavod texnik ko'rsatkichiga muvofiq aniqlangan.

Qo'ng'irotda soda zavod» MCHJ- QK tajriba-sanoat sinovlari o'tkazilib, jarayonning asosiy texnologik parametrlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil - Mass-spektrometrik analiz (ICP-MS), IQ spektroskopik, rentgenofluoressent tahlili, nur qaytarish va nur yutish spektroskopiyasi usullaridan foydalanildi. Distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni laboratoriya sinov natijalari asosida hamda chiqindi suyuqligini kimyoviy qayta ishlab kalsiy peroksid olish bo'yicha ishlab chiqilgan texnologiyalarni sinovdan o'tkazilgani hamda amaliyotga joriy qilinganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Qo'ng'irotda soda zavod atrofidagi hududni ekologik muhitni yaxshilash uchun distiller suyuqligi vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlab kalsiy peroksid olish hamda sellyulozani oqartirish uchun asos yaratilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni samarador kontsentratsiyasi aniqlandi va koagulyatsiyadan o'tkazilgan suvni tozalik darajasi Qo'ng'irotda soda zavod texnik ko'rsatkichiga muvofiq kelishi bilan asoslanadi, shuningdek olingan natijalardan O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlarida noorganik moddalar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlashdagi o'quv jarayonida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo'ng'irotda soda zavod atrofidagi ekologik muhitni yaxshilash uchun kuchli ishqoriy muhitga ega bo'lgan distiller suyuqligini qayta ishlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kaltsilatsiyalangan soda ishlab chiqarishida hosil bo'ladigan suyuq chiqindisini koagulyatsion tozalash usuli "Qo'ng'irotda soda zavod" MCHJ QK ning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ilmiy ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("O'z kimyosanoat" AJ "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKning 2024 yil 23 avgustda 537-16-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni samarador kontsentratsiyasi aniqlash va koagulyatsiyadan o'tkazilgan suvni tozalik darajasi Qo'ng'irotda soda zavodi texnik ko'rsatkichiga muvofiq kelishi va distiller suyuqligini tozalash imkonini beradi;

kaltsilatsiyalangan soda ishlab chiqarishida hosil bo'ladigan suyuq chiqindisiga vodorod peroksid qo'shish natijasida kalsiy peroksid olish texnologiyasi "Qo'ng'irotda soda zavod" MCHJ QKning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ilmiy ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan ("O'z kimyosanoat" AJ "Qo'ng'irotda soda zavodi" MCHJ QKning 2024 yil 23 avgustda 537-16-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, distiller suyuqligi vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlab kalsiy peroksid olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan nashrlarida 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi Respublika va 2 tasi xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiya mavzusining Respublikamiz fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish natijalari ko'rsatib o'tilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kaltsiylangan soda ishlab chiqarishning hozirgi holati, distiller suyuqligini hosil bo'lishi va qayta ishlash usullari**» deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar sharhi hisoblanib, kaltsiylangan soda ishlab chiqarishning hozirgi holati, Solve usulda soda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xom ashyolar haqida, dispers sistemalarning koagulyatsiyasi, CaO_2 ni olish usullari va xossalari. Kaltsiylangan sodaning qo'llanilishi, ishlab chiqarish ko'lami va kaltsiylangan soda ishlab chiqarishdan chiqayotgan chiqindilarni va distiller suyuqligini qayta ishlash sohasidagi tadqiqotlar keltirib o'tilgan. Ilmiy-texnik va patent adabiyotlarida chop etilgan ishlarni tahlili asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Qo'ng'iroq soda zavodning suyuq chiqindisi distiller suyuqligini kimyoviy tarkibini o'rganish va kimyoviy tahlillar o'tkazish hamda tadqiqotning fizik-kimyoviy usullari**» ishda qo'llaniladigan materiallarning xususiyatlari, jumladan tadqiqotda ishlatiladigan reaktivlar, reagentlar va uskunalari, distiller suyuqligini ion almashinish xromatografiyasidan o'tkazish, tajribalarni o'tkazish usullari, distiller suyuqligi umumiy qattiqligini aniqlash. Kimyoviy tahlillar va fizik-kimyoviy tadqiqotlar usullariga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning «**Qo'ng'iroq soda zavodining suyuq chiqindisi distiller suyuqligini koagulyatsiya usuli orqali qayta ishlash**» deb nomlangan uchinchi bobi distiller suyuqligidagi Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlarining umumiy miqdori va suvning qattiqligini aniqlash. Distiller suyuqligi koagulyatsiya jarayoni orqali tozalashni

samarador kontsentratsiyasini aniqlash va koagulyatsiyadan o'tkazilgan suvni tozalik darajasi Qo'ng'irotda soda zavod texnik ko'rsatkichiga muvofiqligiga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Qo'ng'irotda soda zavodning suyuq chiqindisi distiller suyuqligini kimyoviy qayta ishlab kaltsiy peroksid olish texnologiyasi**» deb nomlangan to'rtinchi bobi Qo'ng'irotda soda zavod chiqindi suvi, distiller suyuqligini vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kaltsiy peroksid olish tajriba-sinovlar o'tkazish va sellyulozani oqartirish sanoatida qo'llanilishiga bag'ishlangan.

Qo'ng'irotda soda zavodi Markaziy Osiyoda Solvay usulida soda ishlab chiqaradigan yagona korxonadir. Qo'ng'irotda soda zavodi Qoraqalpog'iston Respublikasining Eleobod qishlog'ida joylashgan. Zavodning noyob ishlab chiqarish texnologiyasi bir necha murakkab bosqichlardan iborat. Asosiy xomashyo Ustyurt platosida joylashgan Barsakelmes konidan olinadigan ko'l tuzi hisoblanadi. Ishlab chiqarishda ishlatiladigan ohaktosh ham yuqori sifatga ega. Ayni paytda zavod yiliga 200 ming tonna soda ishlab chiqarmoqda. Mahsulot shisha ishlab chiqarish, yuvish vositalari, rangli metallurgiya, yengil sanoat, suvni tozalashda asosiy kimyoviy qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Ammo Solvay usulining asosiy kamchiliklari distiller suyuqligi deb ataladigan ko'p miqdordagi suyuq chiqindilarning paydo bo'lishidir, bu asl tabiiy xom ashyodan yetarli darajada samarali foydalanilmaganligini ko'rsatadi. 1 tonna soda ishlab chiqarishda, taxminan 9–10 m³ distiller suyuqligi ajralib chiqadi.

Qo'ng'irotda soda zavodining, yiliga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish loyiha quvvati 200 ming tonnani tashkil etadi. Buning natijasida, zavod atrofidagi ariqlarga chiqindilar to'planishiga olib keladi (1-rasm).



1-rasm. Qo'ng'irotda soda zavod soda ishlab chiqarishdan ajralib chiqayotgan suyuq chiqindisi distiller suyuqligining yuqoridan ko'rinishi (Google Earthga ko'ra)

Qo'ng'irotda soda zavodning suyuq chiqindisi distiller suyuqligini dastlab pH muhiti 12,5 ga tengligi aniqlandi. Distiller suyuqligini filtrati, distiller suyuqligini cho'kmasi va distiller suyuqligi shimdirilgan tuproq namunalarini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili hamda rentgen natijalari olindi, (2,3,4,5-rasmlarda).

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Total	885	mg/cm ²			
2	S	1700	ppm	21.9	28.4	85.3
3	Cl	90100	ppm	113	7.86	23.6
4	Ca	39600	ppm	102	7.63	22.9
5	Fe	25.5	ppm	1.55	2.42	7.26
6	Cu	5.17	ppm	0.488	1.04	3.11
7	Zn	4.82	ppm	0.350	0.634	1.90
8	Sr	16.3	ppm	0.251	0.318	0.954
9	Hf	(6.15)	ppm	1.24	2.87	8.62
10	Ta	(5.38)	ppm	1.10	2.91	8.74
11	U	(1.56)	ppm	0.236	0.619	1.86
12	H ₂ O	86.8	mass%			

2-rasm. Distiller suyuqligini filtratini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Distiller suyuqligini filtratini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilidan Cl⁻ -90100 mg/m³, Ca²⁺ -39600 mg/m³, S⁻ -1700 mg/m³, Fe³⁺ -25,5 mg/m³ elementlari borligi ma'lum bo'ldi.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Cl	40.4	mass%	0.0247	0.0034	0.0101
2	S	1.93	mass%	0.0095	0.0201	0.0602
3	K	0.0237	mass%	0.0030	0.0078	0.0234
4	Ca	25.3	mass%	0.0375	0.0170	0.0510
5	V	(0.0011)	mass%	0.0003	0.0007	0.0020
6	Mn	0.0154	mass%	0.0009	0.0015	0.0045
7	Fe	0.0742	mass%	0.0014	0.0011	0.0034
8	Cu	0.0073	mass%	0.0003	0.0003	0.0010
9	Zn	0.0012	mass%	0.0001	0.0003	0.0008
10	Rb	0.0005	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0002
11	Sr	0.0155	mass%	0.0001	0.0002	0.0005
12	Y	0.0018	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0002
13	Zr	0.178	mass%	0.0018	0.0005	0.0016
14	Ag	0.0012	mass%	0.0001	0.0002	0.0007
15	Dy	(0.0044)	mass%	0.0009	0.0023	0.0070

3-rasm. Distiller suyuqligini cho'kmasini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Distiller suyuqligini cho'kmasini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilidan Cl⁻ -40,4 %, Ca²⁺ -25,3 %, S⁻ -1,93 %, Fe³⁺ -0,0742 % elementlari borligi ma'lum bo'ldi.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Cl	2.06	mass%	0.0017	0.0013	0.0040
2	Mg	0.576	mass%	0.0129	0.0207	0.0622
3	Si	0.324	mass%	0.0024	0.0021	0.0062
4	S	0.336	mass%	0.0011	0.0016	0.0048
5	K	0.0201	mass%	0.0016	0.0041	0.0123
6	Ca	42.2	mass%	0.0492	0.0097	0.0292
7	Ti	0.0081	mass%	0.0006	0.0012	0.0035
8	V	(0.0014)	mass%	0.0003	0.0007	0.0020
9	Mn	0.0114	mass%	0.0006	0.0008	0.0024
10	Fe	0.107	mass%	0.0014	0.0006	0.0018
11	Cu	0.0016	mass%	0.0001	0.0003	0.0009
12	Zn	0.0015	mass%	0.0001	0.0002	0.0005
13	Sr	0.0129	mass%	0.0001	0.0002	0.0005
14	Y	0.0005	mass%	<0.0001	0.0001	0.0003
15	Zr	0.147	mass%	0.0015	0.0004	0.0012
16	Ag	0.0012	mass%	0.0001	0.0002	0.0006
17	Ta	0.0024	mass%	0.0003	0.0006	0.0018
18	Dy	(0.0077)	mass%	0.0012	0.0033	0.0099

4-rasm. Distiller suyuqligi shimdirilgan tuproqni yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Distiller suyuqligi shimdirilgan tuproqni yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilidan Cl^- -2,06 %, Ca^{2+} -42,4 %, S^- -0,336 %, Fe^+ -0,107 % elementlari borligi ma'lum bo'ldi.

Qo'ng'irotda soda zavod chiqindisi distiller suyuqligi KU-2 kationit bilan tozalanganda tarkibidagi Ca^{2+} ioni ko'pligi sabab kationit tez to'yinib qoldi. Shu sabab bir necha marotaba kationit regeneratsiya qilindi.


No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Total	885	mg/cm ²			
2	S	90.7	ppm	4.03	8.60	25.8
3	Cl	18200	ppm	26.5	2.28	6.83
4	Ca	31.5	ppm	3.03	6.16	18.5
5	Fe	17.5	ppm	1.12	2.00	5.99
6	Cu	5.21	ppm	0.361	0.686	2.06
7	Br	ND	ppm			
8	Sr	9.10	ppm	0.898	1.67	5.00
9	Th	(1.16)	ppm	0.176	0.466	1.40
10	U	(1.04)	ppm	0.181	0.490	1.47
11	H ₂ O	98.2	mass%			

5-rasm. Ion almashinish xromatografiyasidan keyin distiller suyuqligini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Ion almashinish xromatografiyasidan keyin distiller suyuqligini yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilidan Cl^- - 18200 mg/m³, Ca^{2+} - 31,5 mg/m³, S^- - 90,7 mg/m³, Fe^{3+} - 17,5 mg/m³ elementlari borligi ma'lum bo'ldi.

Qo'ng'irotda soda zavod 10 ml distiller suyuqligi dastlab sentrifuga qilinib, cho'kma va eritmaga (filtrat) ajratildi. Ajratib olingan 3 ta probirkadagi filtratlarga $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$, $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ va $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$, koagulyantlarni 1% eritmalarini tayyorlanib, distiller suyuqligi filtratlariga 2 ml dan qo'shildi.

Natijada probirkalarda koagulyatsiya jarayoni sodir bo'ldi. 1-probirka distiller suyuqligi filtratiga $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$ qo'shilganda koagulyatsiya natijasida eritma va cho'kmaga ajraldi. Eritma muhiti neytral pH=7,8 ekanligi aniqlandi. 2-probirka distiller suyuqligi filtratiga $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ qo'shilganda koagulyatsiya natijasida eritma va cho'kmaga ajraldi. Eritma muhiti kislotali pH=3,5 ekanligi aniqlandi. 3-probirka distiller suyuqligi filtratiga $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ qo'shilganda koagulyatsiya natijasida eritma va cho'kmaga ajraldi. Eritma muhiti kislotali pH=3,3 ekanligi aniqlandi.



1.

2.

3.

6-rasm. 1. $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$ qo'shilgan distiller suyuqligi filtrati;
2. $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ qo'shilgan distiller suyuqligi filtrati;
3. $\text{FeCl}_3 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$ qo'shilgan distiller suyuqligi filtrati;

Optimal koagulyantni tanlab olish jadvali

No	Koagulyant:DS aralashmasi	pH	rangi	tiniqligi	Cho'kma tushish vaqti
1.	$Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$:DS	7.8	rangsiz	tiniq	5min
2.	$FeSO_4 \cdot 7H_2O$:DS	3.5	sariq	xira	15min
3.	$FeCl_3 \cdot 6H_2O$:DS	3.30	sariq	xira	10min

Distiller suyuqligini qattiqligini kamaytirish uchun va pH muhitini neytral holatga keltirish uchun turli koagulyantlar tanlab olindi va ularni tozalanuvchanlik xossasi o'rganilganda, $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ fizik xossalari qolgan koagulyantlar nisbatan yaxshi ekanligini 1-jadvalda kuzatishimiz mumkin.

Olingan natijalarga ko'ra optimal koagulyant $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ tanlab olindi. $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ koagulyantni 0,125%, 0,25%, 0,50%, 1%, 3%, 5%, 7% va 10% konsentratsiyali eritmaları tayyorlab olindi. Bu tayyorlab olingan turli konsentratsiyali koagulyantlarni distiller suyuqligi filtratiga ta'sir ettirildi va olingan natijalar o'rganildi (6-7 rasmlarda).

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Total	885	mg/cm ²			
2	H ₂ O	92.9	mass%			
3	Cl	49800	ppm	56.8	4.23	12.7
4	Ca	21100	ppm	65.4	5.77	17.3
5	S	356	ppm	8.46	16.3	48.8
6	Sr	12.9	ppm	0.229	0.360	1.08
7	Sn	12.3	ppm	1.02	1.85	5.54
8	Cu	6.26	ppm	0.480	0.958	2.87
9	Ag	3.83	ppm	0.510	0.838	2.51
10	U	(1.23)	ppm	0.251	0.693	2.08
11	Si	ND	ppm	44.3	161	482
12	P	ND	ppm	12.5	41.4	124
13	Cd	ND	ppm	0.418	1.12	3.37
14	Mg	ND	ppm			
15	Al	ND	ppm			
16	K	ND	ppm			
17	Ti	ND	ppm			
18	V	ND	ppm			
19	Cr	ND	ppm			
20	Mn	ND	ppm			
21	Fe	ND	ppm			
22	Co	ND	ppm			

7-rasm. Distiller suyuqligi (filtrati) va 0,125% $Al_2(SO_4)_3$ aralashmasining yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Distiller suyuqligiga (filtrati) va 0,125% $Al_2(SO_4)_3$ aralashmasining yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilida Ca^{+2} 21100 mg/m³, Cl⁻ 49800 mg/m³, S⁻ 356 mg/m³ ni tashkil qildi. Eritmaning pH muhiti kuchsiz ishqoriy muhitni tashkil etadi.

Distiller suyuqligiga (filtrati) va 0,25% $Al_2(SO_4)_3$ aralashmasining yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilida Ca^{+2} 21300 mg/m³, Cl⁻ 50200 mg/m³, S⁻ 502 mg/m³ ni tashkil qildi, olingan natijalar 2- jadvalda keltirilgan. Jadvallardan ko'rishimiz mumkinki, alyuminiy sulfat konsentratsiyasi ortishi bilan

pH qiymatning kamayishini ya'ni kislotalik muhitni ortib borishini kuzatishimiz mumkin.

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Total	885	mg/cm ²			
2	H ₂ O	92.8	mass%			
3	Cl	50200	ppm	57.1	4.27	12.8
4	Ca	21300	ppm	65.8	6.37	19.1
5	S	502	ppm	9.45	16.3	49.0
6	Sr	11.0	ppm	0.190	0.290	0.869
7	Su	8.75	ppm	0.820	1.50	4.49
8	Cu	6.23	ppm	0.413	0.777	2.33
9	Ag	3.93	ppm	0.506	0.673	2.02
10	Zn	3.08	ppm	0.272	0.575	1.73
11	U	(1.07)	ppm	0.206	0.559	1.68
12	Br	1.03	ppm	0.101	0.237	0.712
13	Si	ND	ppm	45.5	161	484
14	P	ND	ppm	12.0	41.5	125
15	Mg	ND	ppm			
16	Al	ND	ppm			
17	K	ND	ppm			
18	Ti	ND	ppm			
19	V	ND	ppm			
20	Cr	ND	ppm			
21	Mn	ND	ppm			
22	Fe	ND	ppm			
23	Co	ND	ppm			
24	Ni	ND	ppm			
25	Ga	ND	ppm			

8-rasm. Distiller suyuqligi (filtrati) va 0,25% Al₂(SO₄)₃ aralashmasining yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili

Optimal holat deb 0,25 % li tanlab olindi, buning sababi bu konsentratsiyada pH qiymati neytral muhitga yaqinroq.

2-jadval

Distiller suyuqligini filtrati bilan turli konsentratsiyali koagulyantlar ta'sirida hosil bo'lgan eritma element tahlili

Komponent	pH	S%	Cl%	Ca%	Fe%	Cu%	Zn%	Sr%	H ₂ O%
Distiller suyuqligini filtrati	12,5	1.7	90.1	39.6	0.0255	0.00517	0.00482	0.0162	86.8
KODJ 0,125% Al ₂ (SO ₄) ₃	7,25	0,356	49,8	21,1	-	0,00626	-	0,0129	92,9
KODJ 0,25% Al ₂ (SO ₄) ₃	7,18	0,502	50,2	21,3	-	0,00623	0,00308	0,011	92,8
KODJ 0,50% Al ₂ (SO ₄) ₃	6,6	1,21	59,8	26,5	-	0,00688	-	0,0168	91,2
KODJ 1% Al ₂ (SO ₄) ₃	3,80	3.3	46.1	21.7	-	0,0061	-	0,0129	92,8
KODJ 3% Al ₂ (SO ₄) ₃	3,55	1.35	47.3	15.7	0,0162	0,00748	0,00343	0,00998	93,6
KODJ 5% Al ₂ (SO ₄) ₃	3,40	2.41	47.1	12.6	-	0,00632	0,00283	0,00914	93,8
KODJ 7% Al ₂ (SO ₄) ₃	3,20	2.06	47.8	8.66	0,0175	0,00692	0,0029	0,00829	94,1
KODJ 10% Al ₂ (SO ₄) ₃	3,00	2.41	48.3	3.87	0,0191	0,00623	-	0,00562	94,5

3-javdalda tanlab olingan $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ koagulyantni foiz konsentratsiyasiga o'zgarishi bilan pH qiymatini, cho'kma balandligini kuzatishimiz mumkin. Bunda kuzatish mumkinki alyuminiy sulfat konsentratsiyasini ortishi bilan eritmada erkin sulfat ionlari miqdori ortib borishi bilan tushuntirishimiz mumkin.

3-jadval

$\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ koagulyantni optimal % tanlab olish jadvali

№	1	2	3	4	5	6	7	8
Koagulyant $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3$ %	0,125%	0,25%	0,50%	1%	3%	5%	7 %	10%
pH	7,25	7,18	6,6	3,8	3,55	3,40	3,20	3
cho'kma balandligi	1sm	1,5sm	1,75sm	2sm	2,5 sm	2,75 sm	3 sm	3,5 sm

Dissertatsiya ishining maqsadi kaltsilangan soda ishlab chiqarish suyuq chiqindilaridan foydalanish, ishlab chiqarilgan kaltsiy peroksidni miqdorini ko'paytirish, shuningdek, kaltsiy peroksid ishlab chiqarish uchun ammiak va vodorod peroksidni iste'molini tejashdir. Taklif etilayotgan usul gazzimon ammiakdan foydalanish va aylanma nasos yordamida distiller suyuqligini aralashtirish va tashish funksiyalarini birlashtirish orqali kaltsiy peroksidning cho'kish vaqtini 1 minutgacha qisqartirish va shu bilan uning suvda erishini kamaytirish orqali kaltsiy peroksid miqdorini oshirish imkonini beradi.

Kaltsiy peroksid ishlab chiqarish usuli, shu jumladan distiller suyuqligi – soda ishlab chiqarishdan olingan suyuq chiqindi, vodorod peroksidning suvli eritmasi va ammiakning suvli eritmasi bilan kaltsiy peroksid hosil qilish bilan tavsiflanadi. Distiller suyuqligini termostabilizatsiyalangan reaktor hajmining sirkulyatsiya nasosi orqali doimiy aralashtirish bilan distiller suyuqligiga 4 °C haroratda vodorod peroksidning 55% eritmasi solinib, pH ni 5,3 ga yetkaziladi, keyin ammiak gazi distiller suyuqligiga suyuqlik orqali o'tkazib quyildi va eritmada pH=9,15 gacha bo'lgan kaltsiy peroksid gidratining cho'kishiga erishildi, so'ngra filtr yuzasida kaltsiy peroksid gidrat ajratildi, cho'kma 120 -130 °C da suvsizlantirildi va cho'kma yuvildi, cho'ktirish 1 daqiqagacha amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Kaltsiy peroksidni cho'ktirish, kaltsiy peroksidni o'z ichiga olgan eritmani sirkulyatsiya nasosi bilan reaktor hajmidan vakuumli lenta filtrining filtrlash yuzasiga etkazib beriladi, lenta harakatlanayotganda to'g'ridan-to'g'ri cho'kma yuvish orqali amalga oshiriladi.

Kaltsiy peroksidni laboratoriyada olish: Distiller suyuqligi 570 ml silindrsimon stakanga quyildi; H_2O_2 (60%) 30 ml va magnitli aralashtirgichda 3 minut davomida 1100 tezlikda aralashtirildi, oq suspenziya hosil bo'ldi (4-jadval).


Qo'ng'irotda zavodning suyuq chiqindilaridan olingan kaltsiy peroksidning yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan spektri tahlilidan Ca^{2+} - 42,4 % elementi borligi ma'lum bo'ldi (9-rasm).

4-jadval

Nisbati	distiller suyuqligi : NH_3 ml	H_2O_2 (30%)ml
1:1	16:16	10
1:1,5	16:24	10
1:2	16:32	10
1:2,5	16:40	10
1:3	16:48	10

No.	Component	Result	Unit	Stat. Err.	LLD	LLQ
1	Cl	6.03	mass%	0.0045	0.0017	0.0051
2	Al	0.250	mass%	0.0062	0.0120	0.0360
3	Si	0.146	mass%	0.0025	0.0043	0.0129
4	S	0.359	mass%	0.0018	0.0038	0.0113
5	K	0.0183	mass%	0.0018	0.0048	0.0143
6	Ca	42.4	mass%	0.0534	0.0181	0.0542
7	Ti	0.0041	mass%	0.0006	0.0013	0.0040
8	Mn	0.0104	mass%	0.0006	0.0009	0.0028
9	Fe	0.0285	mass%	0.0009	0.0013	0.0039
10	Cu	0.0023	mass%	0.0002	0.0003	0.0008
11	Zn	0.0015	mass%	0.0001	0.0002	0.0005
12	Sr	0.0044	mass%	-0.0001	0.0001	0.0004
13	Zr	0.157	mass%	0.0016	0.0004	0.0012
14	Tb	0.0125	mass%	0.0012	0.0025	0.0076
15	Dy	0.0104	mass%	0.0009	0.0018	0.0053

9-rasm. Qo'ng'irotda zavodning suyuq chiqindilaridan olingan kaltsiy peroksidning yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlili



10-rasm. Qo'ng'irotda zavodning suyuq chiqindilaridan olingan kaltsiy peroksidning (suvsiz) IQ spektri

Qo'ng'irotda zavod distiller suyuqligini 3 % li vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida olingan kaltsiy peroksidning IQ spektroskopiyasida 3480 cm^{-1} sohada CaO_2 borligini kuzatishimiz mumkin (10-rasm). Nazariy jihatdan CaO_2 IQ spektroskopiyasida $3550\text{-}3580 \text{ cm}^{-1}$ sohalarda namoyon bo'ladi.

Qo'ng'irotda zavod distiller suyuqligidan olingan kaltsiy peroksid suspenziyasini amaliyotda qo'llash maqsadida terak daraxtidan olingan yarimtayyor sellyulozadan foydalanildi. Bunda sellyulozani oqlik darajasiga Qo'ng'irotda zavod distiller suyuqligidan olingan kaltsiy peroksid suspenziyasini ta'siri o'rganildi.

Qo'ng'irotda soda zavod distiller suyuqligi, vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida olingan kaltsiy peroksid suspenziyasini amaliyotda qo'llash maqsadida terak daraxtidan olingan yarimtayyor sellyulozadan foydalanildi. Bunda sellyulozani oqlik darajasiga Qo'ng'irotda soda zavod distiller suyuqligidan olingan kaltsiy peroksid suspenziyasini ta'siri o'rganildi va terak daraxtidan olingan yarimtayyor sellyuloza oqlik darajasi xlor bilan oqartirilgan darajada oqartirgan, vaqt o'tishi bilan sellyulozani oqlik darajasi saqlanib qoldi va yaxshi natija berdi.



1.



2.



3.



4.



5.



6



7.

11-rasm. 1.Oqartirilmagan sellyuloza; 2. 5% H₂O₂+distiller suyuqligi +NaOH (quruq) 1gr; 3. 4% H₂O₂+ distiller suyuqligi +NH₃; 4. 3%H₂O₂+NH₃ 1ml; 5. 3% H₂O₂ + distiller suyuqligi; 6. 4% H₂O₂ +distiller suyuqligi; 7.Gipoxlorid;

Odatda sellyuloza xlor bilan oqartiriladi ham iqtisodiy jihatdan arzon, lekin xlor bilan oqartirilgan sellyuloza vaqt o'tishi bilan sarg'ayadi.

Pishirilgan sellyulozaga turli konsentratsiyalarda vodorod peroksidni ta'sir ettiliganda, sellyulozani oqlik darajasini o'zgarishini kuzatish mumkin. Sarflanadigan vodorod peroksid konsentratsiyasi kamayishi bilan sellyulozaning oqlik darajasi ortib boradi. Xulosa chaqarish mumkinki, katta konsentratsiyali vodorod peroksid sellyulozani oksidlab quyishi hisobiga uning rangi xiralashadi.

Shu bilan birga sellyulozani mavjud gipoxlorit bilan oqartirish usuli bilan ham solishtirilishi keltirilgan (11-rasm).

5-jadval

Terak daraxtidan olingan yarimtayyor sellyulozani oqlik darajasiga soda ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan suyuq chiqindini ta'siri

№	Oqartiruvchi (H ₂ O ₂):distiller suyuqligi nisbati	Oqlik darajasi				
		Oqligi	Hiraligi	L	a	b
1.	Xom ashyo	49,42	99,98	81,22	2,84	11,11
2.	0:60	81,44	99,98	93,20	0,22	2,10
3.	2:58	63,36	91,25	90,90	0,19	11,68
4.	3:57	63,36	91,25	90,90	0,19	11,68
5.	3:57(ishqoriy)	65,50	92,09	90,46	0,07	10,72
6.	4:56	81,44	99,98	93,20	0,22	2,10

Cu,Fe,Co bu metallar oqartirish jarayonini tezlashtiradi. L- Rang yorqinligi 0 dan 100% gacha o'lchanadi; a indeksi– rang diapazoni yashildan qizil ranggacha rang bilan belgilanadi va - 120° (yashil) dan + 120° (qizil) indeksgacha bo'lgan qiymatga ega; b indeksi– rang diapazoni ko'kdan sariq ranggacha rang bilan belgilanadi va - 120° (ko'k) dan + 120° (sariq) indeksgacha bo'lgan qiymatga ega.

Distiller suyuqligini vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kaltsiy peroksid olish tajriba-sinovlar o'tkazildi va sellyulozani oqartirishda qo'llanilishi yaxshi natija beradi (5-jadval).

6-jadval


Distiller suyuqligini vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash olingan kaltsiy peroksid suyuqligi bilan sellyulozani oqartirishdagi sarf harajatlar:

60 % li H ₂ O ₂ (litr)	Distiller suyuqligi (m ³)	1 tonna oqartirilgan sellyuloza
4 m ³	56 m ³	


1 tonna sellyulozani oqartirish uchun 4 m³ = 4000 litr 60 % li H₂O₂ va 56 m³ = 56000 litr distiller suyuqligi sarflanadi. 1 kg 60 % li H₂O₂ = 25000 so'm.

$v = \frac{m}{\rho} = \frac{1000}{1,4} = 714,28 \text{ ml}$, 1 litr 60 % li H₂O₂ 0,71428 litr. 4000000 · 1,4 = 560000000 gr ≈ 56000 kg · 25000 = 1400000000 ÷ 20 = 7 mln so'm. 6- jadval

bo'yicha 1 tonna sellulozani oqartirish uchun 7 mln so'mlik 60 % li H_2O_2 sarflanadi.



12-rasm. Qo'ng'irotda soda zavod distiller suyuqligidan olingan kaltsiy peroksid olish sxemasi: 1- distiller suyuqligi va H_2O_2 (3 % li) asosiy reaksiyasi boradigan bunker; 2- yuvish bunkeri; 3- sellulozani pishirish bunkeri; 4- asosiy reaksiya bunkeri; 5- NH_4OH solingan bunker; 6 - barabanli quritish pechi; 7-ombor.



13-rasm. Qo'ng'irotda soda zavod distiller suyuqligidan olingan kaltsiy peroksid suspensiyasida sellulozani oqartirish sxemasi: 1-xom selluloza uchun bunker; 2- yuvish bunkeri; 3- sellulozani pishirish bunkeri; 4- distiller suyuqligi bunkeri; 5- H_2O_2 (3 % li) solingan bunker; 6 – asosiy jarayonlar sodir bo'ladigan bunker; 7 - aralastirgich bunkeri; 8- barabanli quritish pechi; 9-ombor.

XULOSA

1. Qo'ng'irotda soda zavodning suyuq chiqindisi distiller suyuqligini kimyoviy tarkibini o'rganildi va kimyoviy tahlillar o'tkazildi.

2. Qo'ng'irotda soda zavodning suyuq chiqindisi distiller suyuqligini kimyoviy tarkibini o'rganish davomida distiller suyuqligi KU-2 kationitida tozalash yaxshi samara bermaydi. Sababi kationit tez ishdan chiqishi hisobiga iqtisodiy samaradorligi yomonlashadi. Qo'ng'irotda distiller suyuqligi pH muhiti =12,5, distiller suyuqligi umumiy qattiqligi $Q=15$ ga teng.

3. Ilk bor tahlillar natijasidan distiller suyuqligini koagulyatsiyaga ta'sir ettirib, distiller suyuqligini tozalab pH muhitini neytral sharoitga keltirib, zavodga qayta ishlatish uchun berilsa yaxshi samara beradi. Bunda koagulyant sifatida $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ tanlab olindi. $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ koagulyantni 0,125%, 0,25%, 0,50%, 1%, 3%, 5%, 7% va 10% konsentratsiyali eritmaları tayyorlab olindi. Distiller suyuqligiga (filtrati) va 0,25% $Al_2(SO_4)_3$ aralashmasining yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan tahlilida Ca^{+2} 21300 mg/m³, Cl^- 50200 mg/m³, S^- 502 mg/m³ ni tashkil qildi.

4. Distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kaltsiy peroksid olish tajriba-sinovlar o'tkazildi. Kaltsiy peroksidni laboratoriyada olishda distiller suyuqligi silindrsimon stakanga quyildi; H_2O_2 (60%) 30 ml va magnit aralashtirgichda 3 minut 1100 tezlikda aralashtirildi, oq suspenziya hosil bo'ldi. Olingan kaltsiy peroksidning yuqori samarali energiya dispersli rentgen-fluoresan spektri tahlilidan Ca^{2+} - 42,4 % elementi borligi ma'lum bo'ldi.

5. Distiller suyuqligini vodorod peroksid bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida olingan kaltsiy peroksid sellyulozani oqartirishda qo'llanilishi yaxshi natija beradi.

6. Ilk bor distiller suyuqligini vodorod peroksid va ammiak bilan kimyoviy qayta ishlash natijasida kaltsiy peroksid olish tajriba-sinovlar o'tkazildi va sellyulozani oqartirishda qo'llanilishi texnologik sxemaga taklif beradi.

7. Distiller suyuqligini koagulyant $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ ning 0,25% li konsentratsiyali eritmaları tayyorlab olinganda iqtisodiy harajatlari quyidagicha aniqlandi 10 m³ distiller suyuqligini pH muhitini 6,68-7 gacha tozalash uchun 195 kg $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$ kerak bo'ladi. $195 * 125000 = 2437500 \div 4 = 6093750$ so'm sarflanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АБДИЕВА ФИРУЗА ИСКАНДАРОВНА

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПЕРЕРАБОТКИ
ОТХОДОВ ХИМИЧЕСКИХ ПРОИЗВОДСТВ (НА ПРИМЕРЕ
КУНГРАДСКОГО СОДОВОГО ЗАВОДА)**

02.00.13 – Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2022.4.PhD/Т3231 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертационная работа выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного семинара в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу www.ziyonet.uz

Научный руководитель:	Набиев Абдурахим Абдухамидович доктор философии по техническим наукам, доцент
Официальные оппоненты:	Темиров Уктам Шавкатович доктор технических наук, доцент Мамажонов Зокиржон Нематжонович доктор философии по техническим наукам, доцент
Ведущая организация:	Ургенчский государственный университет

Защита состоится «27» марта 2025 года в 15⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, улица Косонсой, 7. Тел.: (+99869) 228-76-75; факс: (+99869) 228-76-71, e-mail: niei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института за № 373 (160115, г. Наманган, ул. Косонсой, 7. Тел.: (+99869) 228-76-75; факс: (+99869) 228-76-71.

Автореферат диссертации разослан «14» март 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 11 от «14» март 2025 года)

Эргашев О.К.

Председатель научного совета по присуждению
ученой степени, д.х.н., профессор

Шеркузиев Д.Ш.

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученой степени, д.т.н., профессор

Боймирзаев А.С.

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению учёной степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время роль неорганических веществ в обеспечении продуктами питания растущего населения мира в настоящее время несопоставима, а улучшение качественных показателей химической переработки отходов является важным фактором развития отрасли. В производстве кальцинированная сода применяется при производстве различной продукции, в процессе добычи и переработки нефти и газа, в металлургии, в химической и пищевой промышленности и в других областях. Важно изучать физико-химические свойства запасов сырья при производстве кальцинированной соды, производить ее по малоотходным и экологически чистым безотходным технологиям.

В мире проводится широкий спектр научно-технологических исследований по химической переработке промышленных отходов. проводятся технологические исследования. В этом отношении, создать научную основу способов получения кальцинированной соды с высокими эксплуатационными показателями, изучить их сырье, создать современные технологии и машины для их получения, расширить области их использования, синтезировать универсальные содовые продукты различного содержания, для получения ароматизированных (придающих приятный запах) стиральных порошков. Особое внимание уделяется проведению научных исследований по таким приоритетным направлениям, как разработка методов практического использования отходов кальцинированных содовых заводов и разработка оптимальной технологии получения неорганических веществ из промышленных отходов производства.

В настоящее время в химической промышленности нашей Республики достигнуты конкретные результаты по модернизации, совершенствованию производства и строительству предприятий по производству качественной, новой продукции, локализации сырьевой базы по выпуску новых видов импортозамещающей продукции, реализованы масштабные мероприятия и достигнуты определенные научные и практические результаты. В третьем направлении стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы отмечены важные задачи, направленные на «... продолжение реализации промышленной политики, направленной на обеспечение стабильности национальной экономики, увеличение доли промышленности в валовом внутреннем продукте и роста объема производства промышленной продукции в 1,4 раза»².

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового

²Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

Узбекистана на 2022-2026 годы» и в Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы», ПП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по опережающему развитию химической промышленности в Республике Узбекистан», ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее инвестиционной привлекательности» а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике VII - «Химические технологии и нанотехнологии».

